



"FRANSUZ TILINI O'RGANISHDA ADABIYOTNING O'RNI "

Abdurazzoqova Kamola Dilshod qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Roman-German filologiyasi" fakulteti Fransuz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz tilini o'rganishda adabiyotning o'rni , chet tilini bilish avzallikkleri va fransuz mashhur yozuvchisi Guy-de Mopassant hayoti va uning asarlari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Chet tili, adabiyot, badiiy adabiyot , kitob , yozuvchi , yozish ko'nikmasi , o'qib tushunish ko'nikmasi.

Аннотация : В данной статье рассматривается значение литературы в изучении французского языка, преимущества знания иностранного языка, а также жизнь и творчество известного французского писателя Ги де Монассана.

Ключевые слова: Иностранный язык, литература, художественная литература, книги, писатель, навыки письма, навыки понимания прочитанного.

Annotation : This article discusses the importance of literature in learning French, the advantages of knowing a foreign language, and the life and works of the famous French writer Guy de Maupassant.

Keywords : Foreign language, literature, fiction, book, writer, writing skills, reading comprehension skills.

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, til orqali o'zaro muloqotga kirishadi. U xalqlarni bir-biriga bog'lovchi betakror fenomen bo'lsa, ikkinchi tarafdan turli millatlarni bir-biridan ajratuvchi, o'ziga xos noyob hodisadir. Qolaversa, bugungi kunga kelib jahonning eng ilg'or ish uslublarini o'zlashtirish uchun ham til asosiy vosita hisoblanadi. Zero, tarixdan ma'lumki, qaysi xalq vakillari qancha ko'p til bilsa, shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo'liga chiqa olgan.

Xorijiy tilni o'rganish mohiyati — boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so'zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o'rganib bo'lgan kishilar bilan shug'ullangan ma'qul . Shu tildagi kitoblarni o'qish esa bizga chet tilini o'rganishda yanayam ko'proq asqatadi.

Albatta, chet tillarini o'rganish natijasida kommunikativ imkoniyatlarimiz kengayadi, nufuzli shga kirish imkoniyatimiz oshadi , filmlarni va kitoblarni original tilda ko'rish va o'qishimiz mumkin bo'ladi.

Asosiy qism :

Chet tilini o'rganishda , shu jumladan fransuz tilini ham o'rganishda adabiyot katta va muhim rol o'ynaydi . O'rganuvchi o'zi o'rganayotgan tildagi badiiy kitoblarni o'qisa , o'sha o'zi o'rganayotgan mamlakat tarixini , madaniyatini va qolaversa , o'sha davlat milliy urf-odatlarini o'rganishi mumkin. Badiiy adabiyotlarni o'qish o'quvchining dunyo qarashini kengaytiradi va bu o'rganuvchining yozish ko'nikmasini o'stirishga yordam beradi.Ko'p badiiy asar o'qigan odam esse yozishda qiyalmaydi. O'zi o'rganayotgan tilda badiiy kitob



o'qish orqali yangi-yangi ilgari o'zi bilmagan luğatlarini o'rganadi. Kitob o'qish davomida o'zining o'qib tushunish ko'nikmasini ham o'stiradi.

Shuni takidlab o'tish joizki , yuqori sinfda o'qitiladigan matnlarning eng qiziqlarlari quyidagilar , badiiy adabiyotdan saralangan : tengdoshlar , do'stlik , muhabbat haqida fikr uyğotadigan muammoli matnlar ; mazmunan jozibador (umor , sarguzasht , detektiv , hazil , fantastik) matnlar ; tarixiy ma'lumotlar beradigan , kashfiyotlar va sayohatga oid matnlardir.

Guy-de Mopassant.

Fransuz yozuvchisi. Adabiyotga 1880 yilda she'rlar to'plami va «Do'ndiq» novellasi bilan kirib kelgan. U 6 roman, 18 hikoyalar to'plami, ocherk va pyesalar, ko'plab maqolalar va boshqa asarlar muallifi.


Mopassan ma'nnaviy qashshoq, munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasini yaratgan («Javohirot», «Oila bag'rida», «Vasiyatnama» «Bochkacha», «Iblis» va b.). Uning «Daydi», «Shkaf», «Gadoy» kabi novellalarida turmush qa'riga uloqtirilgan notavonlar hayoti tasvirlangan. Muhabbatni mol-dunyodan iborat deb biluvchi, shu bois har qadamda o'zini sotishga tayyor ayollar obrazi «Ivetta», «Haqqoniy tarix» va boshqa asarlarida mahorat bilan chizilgan.

Mopassan sof muhabbat («Oy yog'dusi», «Baxt»)ni kuylaydi va ma'nnaviy yuksak oddiy kishilarni qadrlaydi («Simon ota», «Marten qizalog'i»), vatanparvar va jasoratli insonlarni tarannum etadi («Do'ndiq», «Madmuazel Fifi», «Milon amaki»).

Uning «Hayot» (1883), «Azizim» (1885), «Mont-Oriol» (1886), «Per va Jan» (1887—88) kabi romanlarida umumbashariy mavzular, mansabparastlar qismati, boylik orttirishga xuruj qilish yuksak mahorat bilan tasvirlab berilgan. «O'limdek kuchli» (1889), «Bizning qalb» (1890) romanlarida esa psixologik ruh kuchli.

«Hayot», «Azizim» romanlari (Ibrohim G'afurov tarjimasi) va bir qancha hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Azizim“ (fransuzcha: Bel-Ami) — fransuz yozuvchisi Gi de Mopassanning 1885-yilda yozilgan romani. Ushbu roman yuqori martabaga ko'tarilishni orzu qiluvchi qahramonning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Asar bosh qahramoni hech qanday alohida iste'dodga ega bo'lmasa-da, birgina kelishgan tashqi ko'rinishi orqali har qanday xonimning qalbini zabit eta oladi va uning vijdoni har qanday yomonlikni kechira oladi. U bu dunyoda kuchli bo'lish uchun shuning o'zi yetarli deb hisoblaydi.





Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , qancha ko'p fransuz tilida kitob o'qisak , shuncha ko'p luğat boyligimiz oshadi , dunyo qarashimiz kengayadi ,fransuz xalqining madaniyati , yashash tarzi , tarixini o'rghanishga yordam beradi va bu esa tilga qiziqishni ortiradi.Adabiyot dunyoni anglash vositasidir, bizga "nima yaxshi va nima yomon" ekanligini tushunishga yordam beradi. Adabiyot insonning ichki go'zalligini ko'rishga, uni anglashni va qadrlashni o'rghanishga yordam beradi.Adabiyot ruhni, shaxsni tarbiyalashning kuchli manbaidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. "Chet tili o'qitish metodikasi " Jamol Jalolov ("O'qituvchi nashriyoti , 1996)
2. "Histoire de la Litterature française " Oumbarov Nichone , Soatjonov Irgache (Toshkent - "O'qituvchi" - 2002).
3. <https://azkurs.org>
- 4.<https://wikipedia.org>